ZAMONAVIY O‘ZBEK TELEVIDENIYESIDA TOK-SHOU JANRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MILLIY TAJRIBA

Moxira XASANOVA
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
San’atshunoslik instituti “Kino san’ati va
audiovizual tadqiqotlar” bo‘limi tadqiqotchisi
Moxira Xasanova -ORCID:https://orcid.org/0009-0007-5239-3511
E-mail:thehasanova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada zamonaviy o‘zbek televideniyesida tok-shou janrining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, uning jahon televideniyesi tajribasi bilan o‘zaro aloqasi hamda milliy media makonidagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tok-shoularning auditoriya bilan muloqot o‘rnatish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va ko‘ngilochar kontent yaratishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, xalqaro televideniye amaliyotida shakllangan tok-shou modellarining o‘zbek televideniyesiga moslashuvi, boshlovchi va ekspertning kommunikativ roli, interaktivlik, infotainment hamda milliy mentalitet omillarining janr rivojiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: televideniye, tok-shou, media, infotainment, telejurnalistika, auditoriya, boshlovchi, interaktivlik, media madaniyat, global media.

Аннотация: в статье анализируются тенденции становления и развития жанра ток-шоу на современном узбекском телевидении, его взаимосвязь с опытом мирового телевидения, а также его специфические особенности в национальном медиапространстве. Освещается роль ток-шоу в установлении диалога с аудиторией, обсуждении социальных проблем, формировании общественного мнения и создании развлекательного контента. Также рассматривается адаптация моделей ток-шоу, сформировавшихся в международной телевизионной практике, к узбекскому телевидению,

коммуникативная роль ведущего и эксперта, влияние факторов интерактивности, инфотейтинга и национального менталитета на развитие жанра.

Ключевые слова: телевидение, ток-шоу, медиа, инфотейтинг, тележурналистика, аудитория, ведущий, интерактивность, медиакультура, глобальные медиа.

Abstract: This article analyzes the trends in the formation and development of the talk show genre on modern Uzbek television, its relationship with the experience of world television, as well as its specific features in the national media space. It highlights the role of talk shows in establishing dialogue with the audience, discussing social issues, shaping public opinion, and creating entertainment content. It also examines the adaptation of talk show models formed in international television practice to Uzbek television, the communicative role of the host and expert, and the influence of factors such as interactivity, infotainment, and national mentality on the development of the genre.

Keywords: television, talk show, media, infotainment, television journalism, audience, host, interactivity, media culture, global media.

Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiyalar sharoitida televideniye auditoriya e’tiborini jalb etish va uni saqlab qolishning yangi shakllarini izlamoqda. Ayniqsa, tomoshabin bilan bevosita muloqotga asoslangan janrlar zamonaviy televidenie kontentida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday janrlardan biri — tok-shou.

Tok-shou zamonaviy televideniyening eng moslashuvchan janrlaridan biri sifatida axborot, tahlil, munozara va ko‘ngilochar elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Uning asosiy xususiyati professional boshlovchi, studiyaga taklif etilgan mehmonlar, ekspertlar va auditoriya o‘rtasidagi kommunikativ munosabatga qurilishidir.

Bugungi o‘zbek televideniyesida ham tok-shoular soni va mavzu doirasi jihatidan sezilarli darajada kengayib bormoqda. Ijtimoiy-ma’rifiy, oilaviy-maishiy,

siyosiy-ijtimoiy, madaniy va ko‘ngilochar yo‘nalishdagi dasturlar turli telekanallar efirida namoyish etilmoqda. Shu jihatdan tok-shou fenomenini global televideniye tendensiyalari va milliy jurnalistika tajribasi kesishmasida o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Tok-shou: global televideniye tajribasida shakllangan janr

Tok-shou fenomeni XX asr ommaviy axborot vositalari rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, dastlab radio orqali ommalashgan suhbat va intervyu formatlarining televideniyega ko‘chishi natijasida yangi janr sifatida shakllangan. Vaqt o‘tishi bilan uning shakl va mazmuni sezilarli darajada takomillashib, turli mamlakatlarning media tizimida o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega bo‘ldi.

Jahon televideniesi amaliyotida tok-shoularning bir necha asosiy modellari shakllangan. Jumladan, intervyu tok-shou, ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan tok-shou, bahs-munozaraga qurilgan va ko‘ngilochar-realitiy formatlari shular jumlasidandir.

AQSh televideniyesi tajribasida tok-shou ko‘pincha boshlovchining individual uslubi va shaxsiy brendi bilan chambarchas bog‘liq. Boshlovchi nafaqat suhbatni boshqaradi, balki dasturning dramaturgiyasi, emotsional ohangi va auditoriya bilan munosabatini ham belgilaydi. Yevropa televideniyesida esa tok-shoularning ijtimoiy-siyosiy bahs-munozarani shakllantirishdagi funksiyasi kuchliroq namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda global televideniye amaliyotida yana bir muhim tendensiya — infotainment, ya’ni axborot va ko‘ngilochar kontentning uyg‘unlashuvi kuchaymoqda. Tomoshabin faqat ma’lumot olishni emas, balki mazkur jarayondan emotsional taassurot olishni ham istaydi. Shu sababli zamonaviy tok-shoular quruq suhbat shaklidan chiqib, vizual dramaturgiya, videolavhalar, auditoriya ishtiroki, ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya va multimedia elementlarini faol qo‘llamoqda.

O‘zbek televideniyesida tok-shoularning milliy xususiyatlari

O‘zbek televideniyesida tok-shou janrining rivojlanishini milliy jurnalistika an’analari va jamiyatning kommunikativ-madaniy xususiyatlaridan alohida tasavvur

qilib bo‘lmaydi. O‘zbek auditoriyasi uchun oilaviy munosabatlar, tarbiya, ma’naviyat, ta’lim, sog‘lom turmush tarzi, yoshlar masalasi, xotin-qizlar muammolari va jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy masalalar tok-shoular mavzusida keng qo‘llanadigan yo‘nalishlardir.

Milliy televideniyedagi tok-shoularning muhim jihatlaridan biri — ijtimoiy muammoni muhokama qilish bilan birga, uning yechimini izlashga intilishdir. Bunda jurnalist yoki boshlovchi faqat savol beruvchi emas, balki suhbatni muayyan kommunikativ maqsad sari yo‘naltiruvchi moderator sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, “Munosabat” tok-shousi turli sohalarda to‘planib qolgan muammolarni hal etish yo‘lidagi sa’y-harakatlar auditoriya bilan kechadigan qizg‘in suhbatlar, bahs-munozaralarga qurilganligi bilan ahamiyatlidir. Auditoriyaga taklif qilingan mehmonlar o‘rtasida turli masalalar qizg‘in muhokama qilinadi. Bunda boshlovchi Q.A’zam tayyor retseptlarni bermaydi. Balki studiya bilan birgalikda muammolar yechimiga yo‘l izlaydi. Yangi mediamakonda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari mutasaddilari jamoatchilikka hisobot berishi, ekspertlar va jurnalistlar bilan fikr almashishi yo‘lga qo‘yildi [1;10].

Ta’kidlash joizki, tok-shou janri nodavlat telekanalar orqali ham tomoshabinlarga e’tiboriga taqdim etiladi. Masalan, “Odamlar orasida” (Sevimli), “Ochiqchasiga gaplashamiz” (Mening yurtim), tok-shoularida oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, xotin-qizlar taqdiri va ijtimoiy adolat kabi mavzular ko‘tariladi. Mazkur tok-shoularda turli ijtimoiy muammolari mavjud aholi vakillari ularga yechim qidirib murojaat qiladi. Tok-shou davomida taklif etilgan ekspertlar o‘rtaga ko‘tarilgan muammoning bartaraf etish choralari haqida fikr yuritadi.

Shuningdek, milliy tok-shoularning kommunikativ modelida mehmonning ijtimoiy maqomi, yoshi, kasbi va mavzuga aloqadorligi muhim ahamiyatga ega. Ekspert fikri bilan oddiy insonning hayotiy tajribasi yonma-yon qo‘yilishi muammoni turli nuqtai nazardan yoritish imkonini beradi.

Biroq tok-shou janrining rivojlanishi bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, ayrim dasturlarda muammoning mazmun-mohiyatidan ko‘ra

uning emotsional jihatini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat berilishi, shaxsiy hayot tafsilotlarining haddan tashqari ochib berilishi, konfliktni sun’iy ravishda kuchaytirish yoki tomoshabinni jalb etish maqsadida dramatizatsiyadan foydalanish holatlari janrning jurnalistik tabiatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan zamonaviy o‘zbek tok-shousi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — reyting va auditoriya qiziqishi bilan jurnalistikaning axloqiy-professional mezonlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir.

Global yondashuv va milliy tajriba uyg‘unligi

Bugungi media makonida milliy televideniye global tajribadan uzilgan holda rivojlana olmaydi. Xalqaro televideniyeda muvaffaqiyat qozongan formatlar turli mamlakatlarda mahalliy auditoriyaning mentaliteti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy ehtiyojlariga moslashtirilmoqda.

O‘zbek televideniyesida ham xalqaro formatlarning ayrim elementlari kuzatiladi. Biroq xorijiy modelni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uni milliy media muhitiga moslashtirish muhimdir. Chunki televideniye formati universal bo‘lishi mumkin, ammo uning mazmuni va kommunikativ mexanizmlari jamiyatning madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi.

Madaniy globallashuv sharoitida media mahsulotlar faqat axborot uzatish vositasi bo‘lib qolmay, balki muayyan turmush tarzi va qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi madaniy mexanizm vazifasini ham bajaradi. Amerikalik olim Gerbert Shiller madaniy imperializm nazariyasida ommaviy axborot vositalari orqali bir xalqning qadriyatlari boshqa jamiyatlarga singdirilishini ta’kidlagan. Bu nuqtai nazardan qaraganda, mahalliy tok-shoularning ayrim formatlari ham tashqi media modellar ta’sirida shakllanayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, janjal va hissiy keskinlikka asoslangan ssenariylar g‘arb media industriyasida keng qo‘llaniladigan “reyting kontenti” xususiyatini eslatadi. Bu tendensiya O‘zbekiston telekanallariga ham olib kirilmoqda. Xususan, nodavlat telekanallari «Sevimli», «Milliy», «Zo‘r» kabi telekanallarda ushbu holatni yaqqol kuzatish mumkin.

«Gapirmasak bo‘lmaydi» ko‘rsatuvida jamiyatda mavjud turli muammolar jamoatchilik oldida muhokama qilinadi. Bu muhokamalar janjal va hissiy keskinlikka asoslangan ssenariy asosiga qurilgan bo‘ladi. Ayniyqa, ko‘rsatuvda ko‘tarilgan ijtimoiy-maishiy mavzular tomoshabin hissiyotiga chuqurroq kirib borishi, ularning ko‘proq muddat yodida qolishi uchun ham shu uslubdan foydalaniladi. Ba’zan esa ko‘rsatuv davomida milliy mentalitetimizga xos kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va oila daxlsizligi tushunchalari bilan ziddiyatga kirishiladi.

«Yangi hayot» ko‘rsatuvida esa ijtimoiy muammolarga yechim topish, insonlarga amaliy yordam berish, hayotda qiynalgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan jihatlar mavjud. Bu — televideniyening ijtimoiy mas’uliyatini namoyon etuvchi muhim xususiyatdir. Biroq hatto shunday formatlarda ham dramatizatsiya elementlari kuchayib ketsa, ma’rifiy maqsad ikkinchi darajaga tushib qolishi xavfi bor. Media tadqiqotchi Nil Postman «Ko‘ngilochar asr» konsepsiyasida jamiyatdagi jiddiy masalalar ham tomoshaga aylanib borayotganini ta’kidlaydi. Bu holatni ayrim mahalliy tok-shoular misolida ham kuzatish mumkin.

Shu bilan birga, globallashuvni mutlaq salbiy jarayon sifatida baholash ham biryoqlama yondashuv bo‘lar edi. Chunki zamonaviy televideniye ochiq muloqot madaniyatini shakllantirish, jamiyatda yashirin qolib kelgan muammolarni ochiq muhokama qilish va inson huquqlarini himoya qilish kabi ijobiy vazifalarni ham bajarmoqda. Ilgari yopiq muhitda saqlangan ayrim ijtimoiy masalalar bugun jamoatchilik muhokamasi orqali yechim topmoqda. Masalan, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, farzand tarbiyasidagi muammolar yoki ajrim oqibatlari haqida ochiq suhbatlar muayyan ma’rifiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy tok-shou uchun uchta muhim omilni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, interaktivlik. Tomoshabin endilikda faqat tayyor kontentni qabul qiluvchi emas. U ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ovoz berish, izohlar,

videomurojaatlar va boshqa raqamli vositalar orqali dastur mazmuniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, boshlovchining professional va kommunikativ kompetensiyasi. Boshlovchi mavzuni chuqur bilishi, turli pozitsiyalarni muvozanatli yoritishi, suhbatdoshga nisbatan hurmatni saqlashi va ayni paytda munozaraning dinamikasini boshqara olishi zarur.

Uchinchidan, kontentning multiplatformaligi. Zamonaviy tok-shou faqat televizion efir bilan chegaralanib qolmasdan, Yutub, telegram, instagram va boshqa raqamli platformalar orqali ham targ‘ib etilmoqda. Natijada televizion dastur alohida ko‘rsatuv emas, balki kengroq media mahsulotga aylanmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy o‘zbek televideniyesida tok-shou janri jahon televideniyesi tajribasidagi umumiy tendensiyalar bilan uyg‘un ravishda rivojlanmoqda. Uning taraqqiyotida interaktivlik, infotainment, multimedia, boshlovchi shaxsiy brendi va auditoriya bilan bevosita kommunikatsiya kabi omillar muhim rol o‘ynamoqda.

Shu bilan birga, milliy tok-shoularning o‘ziga xosligi o‘zbek jamiyatining ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, oilaviy va ijtimoiy munosabatlari, milliy mentaliteti hamda auditoriyaning axborotga bo‘lgan ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Kelajakda o‘zbek tok-shoularining raqobatbardoshligini oshirish uchun xalqaro format va texnologik yondashuvlardan foydalanish bilan bir qatorda, milliy jurnalistikaning kasbiy va axloqiy tamoyillarini mustahkamlash muhimdir. Ayniqsa, ijtimoiy muammolarni yoritishda senzatsiya va xissiy dramatizmdan ko‘ra, muammoning mohiyatini ochish, ekspertlik tahlilini ta’minlash va konstruktiv muloqotga erishish ustuvor bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, tok-shou zamonaviy o‘zbek televideniyesida nafaqat ko‘ngilochar janr, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy masalalarni muhokama qilish va televideniye auditoriyasi bilan samarali kommunikatsiya o‘rnatish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarov H. Kino va televideniye olamida. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. - 1992.
2. Axrorova S. Телевидение и интернеациональное воспитание трудящися. Автореферат диссертации.- Moskva, 1979. - 21 str.
3. Rahmatullaeva I.N. Yangi davr: milliy-ma’naviy yuksalishning o‘zbek televideniyesida aks etishi. Toshkent. -10-bet.https://uza.uz/posts/593637
4. Ubaydullaev A. Oynai jahon istiqbollari. - Toshkent: Fan, - 1993. – B. 78.